

IRRIGATOR-MELIORATOR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (ANDIJON OBLASTI MISOLIDA (1955–1991-YILLAR))

Azizbek Alisher o'g'li MAMAJANOV

dotsent

tarix fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada 1955–1991-yillarda Andijon oblastida irrigator-meliorator kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tarixiy manbalar hamda arxiv materiallari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda suv xo'jaligi va melioratsiya tarmoqlari uchun oliy hamda o'rta maxsus malakali mutaxassislar tayyorlashning tashkiliy asoslari, Andijon paxtachilik instituti va Andijon gidromelioratsiya texnikumining faoliyati, ularning hududiy suv xo'jaligi tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiyalash jarayonlari tahlil qilinib, suv xo'jaligi tizimida kadrlar siyosatining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: Andijon oblasti, irrigatsiya, melioratsiya, suv xo'jaligi, irrigator-meliorator kadrlar, Andijon paxtachilik instituti, gidromelioratsiya texnikumi, muhandis-gidrotexnik, qishloq xo'jaligi, kadrlar siyosati.

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ИРРИГАТОРОВ-МЕЛИОРАТОРОВ (НА ПРИМЕРЕ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ, 1955–1991 ГГ.)

Азизбек Алишер угли МАМАЖАНОВ

Доцент

доктор философии (PhD) по историческим наукам

Андижанского филиала Кокандского университета

Коканд, Узбекистан

Аннотация

В статье на основе архивных материалов и исторических источников исследуются процессы формирования и развития системы подготовки кадров ирригаторов-мелиораторов в Андижанской области в 1955–1991 годах. Особое внимание уделено организационным основам подготовки специалистов высшего и среднего специального звена для водного хозяйства и мелиорации, деятельности Андижанского института хлопководства и Андижанского гидромелиоративного техникума, а также их роли в обеспечении отрасли квалифицированными кадрами. Проанализированы вопросы профессиональной подготовки, повышения квалификации и производственной практики специалистов, раскрыты особенности кадровой политики в системе водного хозяйства.

Ключевые слова: Андижанская область, ирригация, мелиорация, водное хозяйство, кадры ирригаторов-мелиораторов, Андижанский институт

хлопководства, гидромелиоративный техникум, инженер-гидротехник, сельское хозяйство, кадровая политика.

Suv xo‘jaligi tizimini rivojlantirish va sug‘orish ishlarini samarali tashkil etish, avvalo, ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy tajribasi va malakasi bilan bevosita bog‘liq edi. Shu bois Andijon oblastida paxta hosildorligini oshirish hamda irrigatsiya tadbirlarini jadallashtirish maqsadida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Biroq suv xo‘jaligi tashkilotlarining rahbarlik lavozimlari, asosan, mahalliy tabiiy-geografik sharoitlarni yetarli darajada bilmaydigan va markaz tomonidan yuborilgan mutaxassislar tomonidan egallangan edi.

Mazkur masala tarixiylik prinsipi asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil, muammoli-davrlari yondashuv, obyektivlik, tuzilmaviy-tizimli tahlil hamda og‘zaki tarix (oral history) metodlaridan foydalanildi.

Andijon oblastida kolxozlar faoliyatini takomillashtirish, paxta yetishtirish hajmini oshirish hamda sug‘orish ishlarini tashkil etishda boshlang‘ich partiya tashkilotlari muhim tashkiliy vazifani bajardi. Bu jarayonda irrigatsiya va qishloq xo‘jaligi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan hisobotlar muntazam muhokama qilinib, mavjud muammolar yuzasidan amaliy choralar belgilab borildi. Jumladan, 1955-yilda Andijon oblast partiya komiteti byurosida Xo‘jaobod rayon va shahar komiteti faoliyati to‘g‘risidagi hisobot, shuningdek, MTS va kolxozlardagi 90 ta boshlang‘ich partiya tashkiloti kotiblarining irrigatsiya-melioratsiya ishlari bo‘yicha ma‘ruzalari tinglandi. Oblast partiya komiteti rahbar kadrlarning umumiy va kasbiy-texnik tayyorgarligini oshirishga ham e‘tibor qaratdi. Natijada kolxozlardagi 226 nafar boshlang‘ich partiya tashkiloti kotibidan 87 nafari (38,5 %) oliy, tugallanmagan oliy yoki o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lgan [1; 84.]. Bu holat irrigatsiya-melioratsiya tizimini rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlash davlat agrar siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanganini ko‘rsatadi.

Suv xo‘jaligi va melioratsiya sohalari uchun oliy malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida 1960-yilda Andijon shahrida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining filiali ochildi. Unda qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish, gidrotexnika va agronomiya yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlandi. 1964-yil 22-iyunda ushbu filial negizida Andijon paxtachilik instituti tashkil etildi [2; 274]. 1964-yil 1-sentabrda Kuyganyor qishlog‘ida institutning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Institutning shakllanishi O‘zbekiston SSR rahbari Sh. Rashidov nomi bilan bog‘liq bo‘lib, birinchi rektor H.S. Sattorov rahbarligida ilmiy-pedagogik jamoani shakllantirish ishlari boshlandi [3; 88.].

Institut faoliyatining dastlabki bosqichida moddiy-texnik baza va ilmiy salohiyat yetarli emas edi. 13 ta kafedrada ishlagan 61 nafar professor-o‘qituvchidan faqat 6 nafari (10 %) fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘lgan. Laboratoriya jihozlari, texnik vositalar, yotoqxon va kutubxona fondi bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lsa-da, Sh. Rashidov, oblast rahbari B. Rahimov va institut jamoasi sa‘y-harakatlari natijasida bu kamchiliklar bosqichma-bosqich bartaraf etildi. Keyinchalik institut bitiruvchilari suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi va melioratsiya tizimlarining turli bo‘g‘inlarida faoliyat yurita boshladilar.

Suv xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashda “Gidromelioratsiya” fakulteti alohida o‘rin tutdi. 1960–1970-yillarda fakultet tarkibida ixtisoslashgan kafedralar shakllandi: 1965-yilda “Gidrogeologiya”, 1966-yilda “Gidromeliorativ tizimlarni boshqarish va avtomatlashtirish”, 1968-yilda “Gidrotexnika va muhandislik qurilmalari hamda qurilish mexanikasi”, 1970-yilda “Gidravlika”, 1971-yilda esa “Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi” kafedralari tashkil etildi [4; 23.]. Ushbu kafedralar Andijon oblasti va Farg‘ona vodiysi uchun muhandis-gidrotexnik kadrlar tayyorlashning asosiy ilmiy-ta’lim bazasiga aylandi.

1968–1969-o‘quv yilida ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar yetishmasligi sababli mutaxassislik fanlaridan ma’ruzalar Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti o‘qituvchilari tomonidan olib borildi. Shu sababli 55 nafar bitiruvchi diplom loyihalarini tayyorlash uchun

mazkur institut va boshqa yetakchi oliy ta'lim muassasalariga yuborildi, 8 nafar talaba esa diplom ishini institutning "Gidrogeologiya" kafedrasida bajardi. O'sha yili kunduzgi bo'limda 54 nafar, sirtqi bo'limda 9 nafar talaba diplom loyihalarini himoya qildi. Fakultet faoliyatiga Moskva gidromelioratsiya instituti ham ilmiy-metodik yordam ko'rsatdi [4; 24].

1969-yildan institut gidromeliorator mutaxassislarni muntazam tayyorlay boshladi. 1973-yilda ushbu yo'nalishni 138 nafar, 1974-yilda 124 nafar bitiruvchi tamomladi. Ulardan mos ravishda 112 va 99 nafari kunduzgi ta'limda tahsil olgan [5;74–75]. 1970-yillar boshlarida fakultet bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi oshib, ularni ishga taqsimlash ittifoq miqyosida amalga oshirildi. Xususan, 1972-yilda fakultetni tamomlagan 96 nafar mutaxassisdan 14 nafari SSSR Suv xo'jaligi ministrligiga, 33 nafari O'zbekiston SSR Melioratsiya va suv xo'jaligi ministrligiga, 17 nafari O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi ministrligiga, 11 nafari SSSR Sovхозlar ministrligiga, 20 nafari O'zbekiston SSR Suv qurilishi boshqarmasiga, 1 nafari esa Gruzuya SSR Melioratsiya va suv xo'jaligi ministrligiga yuborildi [5;76].

1970–1971-o'quv yilidan institutda uslubiy kengash faoliyat boshladi. Unda o'quv rejalari, talabalar mustaqil ta'limi va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqildi. Gidromelioratsiya fakultetida joriy etilgan nazorat haftalari tizimi samarali deb topilib, boshqa fakultetlarga ham tavsiya qilindi. Andijon oblastida adirliklarni o'zlashtirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash zarurati institutning ilmiy-tadqiqot faoliyatini bevosita ishlab chiqarish bilan bog'ladi. Shu asosda institut O'zbekiston SSR Suv xo'jaligi ministrligi bilan tuzilgan xo'jalik shartnomalari doirasida tadqiqotlar olib bordi. SSSR Qishloq xo'jaligi ministrligining 1980-yil iyuldagi 199-sonli buyrug'iga muvofiq Gidromelioratsiya fakulteti qoshida xo'jalik shartnomalari asosida faoliyat yurituvchi tarmoq laboratoriyasi tashkil etildi [5; 78].

1976–1980-yillarda Andijon paxtachilik institutida gidromelioratsiya va gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash yo'nalishlari bo'yicha jami 6221 nafar mutaxassis tayyorlandi. Ta'lim jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda

ishlab chiqarish amaliyotiga ham ustuvor ahamiyat berildi. Jumladan, 1984-yilda Gidromelioratsiya fakultetining uchinchi bosqich talabalari loyiha-qidiruv amaliyotini O‘zbekiston SSR Suv xo‘jaligi ministrligining yetakchi loyihalash institutlarida, to‘rtinchi bosqich talabalari esa respublika hamda Rossiya Federatsiyasining Novgorod oblastidagi suv xo‘jaligi obyektlarida o‘tadilar. Amaliyot davomida ular nasos stansiyalari, gidrotexnik inshootlar va kanallar qurilishida ishtirok etib, suv ta‘minoti tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha zarur kasbiy ko‘nikmalarni egalladilar.

1990-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, gidromelioratsiya yo‘nalishining sirtqi bo‘limini tamomlagan bitiruvchilar soni 233 nafarni tashkil etdi [5;101]. Shu yili diplom loyihalari “Andijon suv qurilish” tresti boshqaruvchisi X. Xalilov raisligida himoya qilindi. M. Xolmatovning “Andijon oblasti hududidagi “Bo‘ston” kanalini rekonstruksiya qilish ishlarini tashkil etish” hamda X. Sobirovning “Namangan oblasti Uychi rayonidagi “Qumqo‘rg‘on” kanalini rekonstruksiya qilishni tashkil etish” mavzularidagi diplom loyihalari amaliyotga joriy etish va eng yaxshi diplom ishlari tanloviga tavsiya qilindi [5; 107].

XX asrning 80-yillariga kelib, O‘zbekiston SSRda oliy malakali qishloq va suv xo‘jaligi mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj bosqichma-bosqich qondirila boshladi. Andijon paxtachilik institutining kunduzgi va sirtqi bo‘limlarini tamomlagan agronomlar, muhandis-gidrotexniklar hamda boshqa ixtisoslik egalari sonining ortishi oblast xo‘jaliklari va suv xo‘jaligi tashkilotlarida kadrlar tarkibining kengayishiga olib keldi. Shu bilan birga, kunduzgi ta‘limni tamomlagan bitiruvchilarni rejalashtirilgan ish o‘rinlari bilan ta‘minlash masalasi ham dolzarb tus oldi.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida bitiruvchilar o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borildi. Natijada 1982-yilda institutning 30 nafar bitiruvchisi respublika qishloq xo‘jaligi oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini kolxoz va sovxozlarning o‘rta bo‘g‘in rahbarlik lavozimlariga borishga da‘vat etdi. Ularning 13 nafari qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, 17 nafari gidromelioratsiya yo‘nalishi mutaxassislari

edi. Barcha bitiruvchilar yo‘llanma asosida belgilangan ish joylariga borib, xo‘jaliklarning o‘rta bo‘g‘in kadrlar tarkibiga qo‘shildilar [5;102].

1981–1985-yillarda institutda ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish ishlari faollashdi. Mazkur davrda 35 ta ilmiy-tadqiqot ishi zavodlar, suv xo‘jaligi tashkilotlari va qishloq xo‘jaligi korxonalarida amaliyotga tatbiq etildi. Xususan, ilmiy-texnik ishlanmalar “Altayselmash” zavodi, Katta Farg‘ona kanali boshqarmasi, paxtachilik mashinalari davlat konstruktorlik byurosi, “Andijon suv qurilish” trestining 4-mexanizatsiyalashgan ko‘chma safi, “O‘zerloyiha” instituti hamda Andijon oblastining qator xo‘jaliklarida qo‘llanildi [5;111]. Bu holat institut faoliyatida ilmiy izlanishlar va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchayganligini ko‘rsatadi.

Andijon oblastida suv xo‘jaligi va qishloq qurilishi ehtiyojlarini ta‘minlashda o‘rta bo‘g‘in ta‘lim muassasalari ham muhim o‘rin tutdi. O‘zbekiston SSR Mehnat zahiralari ministrligi boshqarmasining 1948-yil 14-avgustdagi 297-sonli buyrug‘i asosida Andijon shahrida “17-sonli Andijon qishloq xo‘jaligi kasb-hunar bilim yurti” tashkil etildi. Mazkur bilim yurti O‘zbekiston SSR Paxtachilik ministrligi hamda Andijon avtotraktor qismlari mashina-ekskavator stansiyasi zavodi negizida faoliyat olib bordi [7; 4].

Bilim yurtida o‘qish muddati ikki yil bo‘lib, jami 250 nafar talabani tayyorlash rejalashtirilgan edi. Birinchi o‘quv yilida ekskavator mashinisti, metall tokarchi, sanoat asbob-uskunalari chilangari va avtomobil ta‘mirlash ustasi yo‘nalishlariga qabul amalga oshirildi. Ikkinchi o‘quv yilida esa ekskavator mashinisti va metall tokarchi yo‘nalishlari bo‘yicha talabalar qabul qilindi. 1955-yilda ushbu bilim yurti 19-sonli Andijon kasb-hunar bilim yurti bilan birlashtirilib, “19-sonli Andijon qishloq kasb-hunar bilim yurti” tashkil etildi [7; 5].

XX asrning 60–70-yillarida Andijon oblasti suv xo‘jaligi tizimida mexanizator, irrigator va o‘rta maxsus gidrotexnik kadrlarga ehtiyoj yanada ortdi. Ushbu talab asosida 1965-yilda Marhamat rayonida Andijon gidromelioratsiya texnikumi tashkil etildi. Texnikum suv xo‘jaligi tashkilotlarini o‘rta maxsus mutaxassislar bilan ta‘minlashga yo‘naltirilgan ta‘lim muassasasi sifatida

shakllandi. Uning qurilishi “Andijanirstroy” trestiga qarashli Shahrixon qurilish-montaj boshqarmasi tomonidan amalga oshirildi.

1969-yil mart oyida O‘zbekiston Kompartiyasi Andijon oblast komiteti birinchi kotibi Bektosh Rahimov texnikum qurilishi bilan tanishdi. Qurilish ishlarining sust borishiga PMKning mavjud emasligi sabab bo‘layotgani aniqlangach, Respublika Melioratsiya va suv xo‘jaligi ministri Solijon Mamarasulovga murojaat qilindi. Natijada Marhamat rayonida “Andijanirstroy” trestiga qarashli PMK tashkil etilib, unga Azimjon Yusupov rahbar etib tayinlandi. Shundan so‘ng texnikum qurilishi jadallashdi va obyekt qisqa muddatda foydalanishga tayyor holatga keltirildi [8; 4–5].

Andijon gidromelioratsiya texnikumi faoliyatining dastlabki yilida, ya’ni 1965-yilda kunduzgi va sirtqi bo‘limlarga jami 390 nafar talaba qabul qilinib, ularga 16 nafar oliy ma’lumotli o‘qituvchi ta’lim berdi. Texnikumda Andijon, Namangan va Farg‘ona oblastlari bilan birga Qirg‘izistonning O‘sh va Jalolobod oblastlaridan kelgan talabalar ham tahsil oldi. Bu holat mazkur ta’lim muassasasining mintaqaviy ahamiyatga ega o‘rta maxsus gidromelioratsiya markaziga aylanganini ko‘rsatadi.

Texnikumda “Gidromelioratsiya”, “Gidrotexnik qurilish”, “Gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” va boshqa ixtisosliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlandi. 1965–1974-yillarda bu yerda 3510 nafar mutaxassis yetishtirilib, ular xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari, suv xo‘jaligi tizimi hamda qo‘shni hududlarda faoliyat yuritdilar.

Ta’lim muassasasining dastlabki tashkiliy shakllanishida suv xo‘jaligi muhandisi Yo‘ldoshali Rahmonov direktor o‘rinbosari sifatida faoliyat olib bordi. Ilk o‘quv mashg‘ulotlari Ibrohimjon Tursunov, Karimjon Yusupov, Rahimjon Tursunov, Fathi Risayev, Xolod Nina Fyodorovna, Ahmadjon Ortiqov, Ismatulla Sobirov va Toirjon Mamajonov tomonidan olib borildi. Texnikumning birinchi direktori Komiljon Qurbonov bo‘lib, u 1965–1968-yillarda rahbarlik qildi.

1969-yilda Rahmonberdi Xudoyberdiyev texnikum direktori etib tayinlandi. Uning rahbarligi davrida ta’lim muassasasi infratuzilmasi kengaytirilib, 40

xonadonli to'rt qavatli turar joy, 704 o'rinli ikkita yotoqxon, 910 o'rinli o'quv binosi, 250 o'rinli oshxon, 100 o'rinli choyxon va jami 42 ta bino barpo etildi. Qurilish va obodonlashtirish ishlarida ko'chma kolonna mutaxassislari bilan birga texnikum xodimlari ham ishtirok etdilar.

1968-yilda texnikumning 10 nafar o'qituvchisi sobiq Ittifoqdagi o'rta maxsus o'quv yurtlariga malaka oshirish uchun yuborildi. Ularning orttirgan tajribasi keyinchalik o'quv jarayoniga tatbiq qilindi. Bu ishlarni amalga oshirishda Yo'ldoshali Rahmonov, Mo'minjon Qosimov, Ro'zimhammad Ibragimov, Karimjon Abdusalomov, Toirjon Mamajonov, Sul-tonboy Bo'riboev va Shokirjon Buvayevlarning xizmati muhim bo'ldi [8; 7-8]. 1974-yil 15-apreldagi tarifikatsiya vedomostiga ko'ra, texnikumda 73 nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, ulardan 57 nafari asosiy shtatda, 16 nafari o'rindoshlik asosida ishlagan.

1973-1974-o'quv yilining 1-sentabr holatiga ko'ra, Andijon gidromelioratsiya texnikumida jami 1455 nafar talaba tahsil oldi. Ularning 893 nafari kunduzgi, 373 nafari sirtqi, 189 nafari kechki ta'lim shaklida o'qigan. Mutaxassisliklar kesimida gidromelioratsiya yo'nalishi yetakchi bo'lib, unda 808 nafar talaba tahsil olgan; gidromelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash yo'nalishida 330 nafar, gidrotexnik qurilish yo'nalishida esa 317 nafar talaba o'qigan [9;113]. Bu ko'rsatkichlar texnikumning irrigator-meliorator kadrlar tayyorlashdagi salohiyati ortib borganini tasdiqlaydi.

1978-yilda sobiq Ittifoq Suv xo'jaligi ministrligi tasarrufida 22 ta texnikum mavjud bo'lib, Andijon gidromelioratsiya texnikumi ular orasida ilg'or ta'lim muassasalaridan biri sifatida e'tirof etildi. Shu sababli 1979-yil dekabr oyida Ittifoq Suv xo'jaligi ministrligiga qarashli texnikumlarning rahbar xodimlari seminar-kengashi aynan shu texnikumda o'tkazildi [8; 9].

Texnikumda kunduzgi bo'lim bilan birga sirtqi ta'lim ham faoliyat yuritdi. Unga Farg'ona vodiysi suv xo'jaligi tashkilotlarida ishlayotgan, biroq maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan xodimlar tanlov asosida qabul qilindi. Sirtqi bo'limga turli yillarda Rahmonberdi Xudoyberdiyev, Ibrohimjon Tursunov, Abdusalom Isaqov, Ayub Isariyev, Shokirjon Buvayev va Muhammadamin

Rahmonovlar rahbarlik qildilar. Ushbu bo‘limni tamomlagan mutaxassislar Farg‘ona vodiysi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash ishlariga jalb etildi.

1975-yildan texnikumda kechki bo‘lim ham tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi Andijon suv ombori qurilishini o‘rta maxsus ma‘lumotli mutaxassislar bilan ta‘minlashdan iborat edi. Dastlab bo‘limga G‘ulomjon Muzaffarov rahbarlik qildi [8; 9–10]. O‘qituvchilar suv ombori qurilishida faoliyat yuritayotgan tajribali mutaxassislardan tanlab olindi. Talabalarning ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tahsil olishi “Suv xo‘jaligi inshootlarini qurish” yo‘nalishi bo‘yicha amaliy tayyorgarlikka ega kadrlar shakllanishiga xizmat qildi.

1978-yil oxirida Andijon gidromelioratsiya texnikumiga direktor etib Abdusalom Isaqov tayinlandi. Suv xo‘jaligi muhandisi sifatidagi tajribasiga tayangan holda u o‘quv-laboratoriya bazasini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratdi. Mo‘minjon Qosimov rahbarligida Farg‘ona vodiysidagi asosiy gidrotexnik inshootlarning kichraytirilgan maketlari yaratilib, talabalar uchun amaliy o‘quv bazasi shakllantirildi. Bu davrda texnikum hududida suv xo‘jaligi tarixiga oid eksponatlar jamlangan muzey tashkil etildi hamda xodimlarni uy-joy bilan ta‘minlash maqsadida kottej tipidagi uylar qurildi.

Texnikumda talabalarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishga ham e‘tibor qaratildi. Soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, 20 mingdan ortiq kitob fondiga ega kutubxona faoliyat yuritdi. 1990-yilga kelib ta‘lim muassasasidagi bo‘limlar soni 6 taga yetkazildi [8; 11].

O‘zbekiston SSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi ministrligining 1976-yilgi shtatlar jadvali asosida Andijon oblast sug‘orish sistemalari boshqarmasi malakali kadrlar bilan to‘ldirildi. 1977-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, tizimda 2460 nafar xodim faoliyat yuritgan bo‘lib, ulardan 1056 nafari muhandis-texnik xodimlar edi. Ularning 130 nafari oliy, 467 nafari o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, 12 nafar xodim oliy o‘quv yurtlarining sirtqi bo‘limlarida, 28 nafari texnikumlarda tahsil olgan, 14 nafar muhandis-texnik esa malaka oshirish kurslarini tamomlagan [10; 21].

Andijon paxtachilik institutida ham kadrlar tayyorlash salohiyati izchil rivojlandi. 1975–1980-yillarda o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot faoliyati faollashib, ilmiy-pedagogik jamoa tarkibida 5 nafar fan doktori, 41 nafar fan nomzodi va dotsent, 54 nafar katta o‘qituvchi hamda 71 nafar assistent faoliyat yuritdi. Natijada institutning ilmiy salohiyati 26,9 foizga yetdi [3;89].

1981–1985-yillarni qamrab olgan o‘n birinchi besh yillikda O‘zbekiston SSRda tayyorlangan qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining 63,4 foizini mexanizatorlar, 14,2 foizini melioratorlar, 13,4 foizini chorvadorlar tashkil etdi. Ularni tayyorlash 212 ta hunar-texnika bilim yurtlarida tashkil etilgan doimiy kurslar orqali amalga oshirildi [11; 45]. Mazkur siyosat Andijon oblastida ham o‘z aksini topdi. Xususan, 1987-yilda oblast suv xo‘jaligi ishlab chiqarish boshqarmasi ehtiyojiga ko‘ra Suv xo‘jaligi ministrligi tomonidan 26 nafar oliy va 41 nafar o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassis yuborildi.

1988-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Andijon oblast suv xo‘jaligi ishlab chiqarish boshqarmasida 3591 nafar xodim faoliyat yuritgan. Ulardan 1018 nafari muhandis, 429 nafari texnik lavozimlarda ishlagan bo‘lib, 357 nafari oliy, 858 nafari esa o‘rta maxsus ma’lumotga ega edi [12; 6]. Ushbu ko‘rsatkichlar 1980-yillar oxiriga kelib suv xo‘jaligi tizimida malakali mutaxassislar ulushi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Andijon oblastida suv xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari faoliyati asosida shakllandi. Andijon paxtachilik instituti va uning gidromelioratsiya fakulteti muhandis-gidrotexnik kadrlar tayyorlashning asosiy markaziga aylangan bo‘lsa, Andijon gidromelioratsiya texnikumi hamda kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘rta bo‘g‘in mutaxassislar tayyorlash vazifasini bajardi. Tayyorlangan kadrlar irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish, yangi yerlarni o‘zlashtirish va suv xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadilar.

Shu bilan birga, ayrim boshqaruv lavozimlarining markazdan yuborilgan, mahalliy tabiiy-geografik va agrar sharoitlarni yetarli darajada bilmagan mutaxassislar tomonidan egallanishi tizim faoliyatida muayyan muammolarni

yuzaga keltirdi. Aksincha, mahalliy sharoitni chuqur bilgan gidromeliorator mutaxassislarning faoliyati sug'orish va yerlarni o'zlashtirish ishlarining samaradorligini oshirishga hamda suv xo'jaligi tizimining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Очилов Н. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация ишлари (1946-1964). – Тошкент: Фан, 1991. –
2. Искандаров С.И., Раҳимбоев Ф.М. Ўзбекистонда ирригация ва мелиорациянинг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1984.
3. Shamsutdinov R.T., Valixonova G.K. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyala instituti 60 yoshda // Vodiynoma. Yanvar-Mart. – Andijon, 2025. – №1(38). – B.88.
4. Андижон қишлоқ хўжалиги институти – 50 ёшда / Лойиҳа раҳбари: З.М.Жумабоев. Лойиҳа муаллифи: Т.С.Худойбердиев. – Андижон, Андижон қишлоқ хўжалиги институти, 2014. – Б.23.
5. Файзиев Р. Андижон пахтачилик институти (тарихий лавҳалар). – Андижон: “Andijon nashriyot-matbaa” ОАЖ, 2006. – Б.74-75.
6. О'z R PAA AVB, 155-fond, 2-ro'uxat, 182-yig'majild, 68-varaq.
7. AVDA, 625-fond, 2-ro'uxat, 2-yig'majild, 4-varaq. 2 AVDA, 625-fond, 2-ro'uxat, 2-yig'majild, 5-varaq.
8. Маматов И. Шонли йўл: Марҳамат қишлоқ ва сув хўжалиги касб-хунара коллежи эллик ёшда. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015. – Б.4-5.
9. О'z MA, R.2483-fond, 1-ro'uxat, 5809-yig'majild, 113-varaq.
10. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 1976-yil uchun yillik texnik hisoboti materiallaridan. – B.21.
11. Мирзаев Т. Кадрлар тайёрлашни яхшилашлик // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1987. – №1. – Б.45.

12. O‘zR SXV NQITHB joriy arxivi. Andijon oblast suv xo‘jaligi ishlab chiqarish boshqarmasining 1987-yil uchun yillik texnik hisoboti materiallaridan. – B.6.